

BOSHLANG'ICH MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA BILISH JARAYONLARINING SHAKLLANISHI

Hamzayeva Zebiniso Jo'raqulovna
Surxondaryo viloyati Denov tumanidagi
Maktabgacha va maktab ta'lim bo'limi tasarrufidagi
10-umumiy o'rta ta'lim maktabi amaliyotchi psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada boshlang'ich maktab yoshidagi o'quvchilarda bilish jarayonlarining shakllanishi, ularning psixologik xususiyatlari hamda ta'lim jarayonidagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, diqqat, xotira, tafakkur va tasavvur kabi bilish jarayonlarini rivojlantirish usullari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: bilish jarayoni, diqqat, xotira, tafakkur, tasavvur, boshlang'ich ta'lim, o'quvchi psixologiyasi, rivojlanish.

KIRISH

Boshlang'ich maktab yoshidagi o'quvchilarda bilish jarayonlari ularning shaxs sifatida shakllanishida muhim o'rin tutadi. Bu davrda bola atrof-muhitni o'rganishga, yangi bilimlarni qabul qilishga va ularni amaliyotda qo'llashga faol intiladi.

Psixologik jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarida diqqat beqaror bo'lib, tez chalg'ish holatlari kuzatiladi. Shu sababli o'qituvchi tomonidan qiziqarli va interaktiv metodlardan foydalanish muhim hisoblanadi. Xotira bu yoshda asosan obrazli va mexanik xarakterga ega bo'ladi. Bolalar ma'lumotni ko'proq eshitish va ko'rish orqali tezroq eslab qoladilar. Tafakkur jarayoni esa asta-sekin mantiqiy yo'nalishga o'tadi. O'quvchilar oddiy tahlil qilish, taqqoslash va xulosa chiqarish ko'nikmalarini egallay boshlaydilar. Tasavvur ham bilish jarayonlarining muhim qismi bo'lib, bolalarning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi. Ertaklar, o'yinlar va ijodiy topshiriqlar bu jarayonni kuchaytiradi.

Maktab muhiti bilish jarayonlarining rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchining rag'batlantiruvchi va qo'llab-quvvatlovchi munosabati bolada bilim olishga qiziqishni oshiradi. Oila ham bu jarayonda muhim rol o'ynaydi. Ota-onaning bolaga e'tibori va yordam berishi uning o'qishga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytiradi.

Psixologik jihatdan o'quvchilarda bilish jarayonlarini rivojlantirish uchun o'yin texnologiyalari, ko'rgazmali vositalar va amaliy mashg'ulotlardan foydalanish samarali hisoblanadi. Shuningdek, bolalarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish muhimdir. Bu ularning kelajakda ijodiy va tanqidiy fikrlovchi shaxs bo'lib shakllanishiga yordam beradi.

Kichik maktab yoshi davrda bola maktab o'quvchilariga qo'yiladigan turli talablar bilan tanishadi, fan asoslarini o'rganish uchun biologik va psixologik jihatdan tayyorlanadi. Uning psixikasi bilim olishga yetadigan darajada rivojlanadi. Shu yoshdagi bola idrokining o'tkirligi, ravshanligi, sofligi, aniqligi, o'zining qiziquvchanligi, ishonuvchanligi, xayolining yorqinligi, xotirasining kuchliligi, tafakkuriniig yaqqolligi bilan boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi. Maktab ta'limiga tayyorlanayotgan bolada diqqat nisbatan uzoq muddatdan va shartli barqaror bo'ladi. Kichik maktab yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati o'qish hisoblanadi. Bolaning maktabga borishi, uning psixologik rivojlanishi va shaxsning shakllanishidaga o'rni nihoyatda katta. Bola o'quv faoliyatida o'qituvchi rahbarligida inson ongining turli asosiy shakllarining mazmunini egallaydi va insoniy an'analar asosida harakat qilishni o'rganadi.

O'quv faoliyatida bola o'z irodasini o'quv maqsadlariga erishish uchun mashq qildiradi. O'quv faoliyat boladan nutq, diqqat, xotira, tasavvur va tafakkurini kerakli darajada rivojlanishini talab etgan holda, bola shaxsi rivojlanishi uchun yangi sharoitlarni yaratadi. Birinchi bor maktabga kelgan bola o'z atrofdagilari bilan psixologik jihatdan yangi munosabat tizimiga o'tadi. U hayotining tubdan o'zgarganini, unga yangi majburiyatlar, nafaqat, har kuni maktabga borish, balki o'quv faoliyati talablariga bo'ysunish ham yuklatilganligini his eta boshlaydi. Oila a'zolarining bola o'quv faoliyati, yutuklari bilan qiziqayotganligi, shuningdek, uni nazorat qilayotganligi, unga qilinayotgan yangi muomala, munosabat uning ijtimoiy mavqeyi o'zgarganini to'la his etishiga, o'ziga nisbatan munosabatining o'zgarishiga asos bo'ladi. Kattalar bolalarni amaliy jihatdan o'z vaqtlarini to'g'ri taqsimlash borasida yaxshi o'qish, o'ynash, sayr qilish va boshqa narsalar bilan shugullanishga o'rgatadilar. Demak, oilada bola u bilan hisoblashadigan, maslahatlashadigan yangi bir o'rinni egallaydi, o'quvchining maktabdagi muvaffaqiyati uning keyingi psixik rivoji va shaxsining shakllanishida -to'liq ijobiy asos bo'ladi.

Bola insoniy munosabatlar tizimida ham alohida o'rin egallayotganini, ota-onasi, yaqinlari, atrofdagilari unga yosh boladek emas, balki o'z vazifalari, majburiyatlari bor bo'lgan, o'z faoliyat natijasiga ko'ra hurmatga sazovor bo'lishi mumkin bo'lgan alohida shaxs sifatida munosabatda bo'ladilar. Buning natijasida bolaning o'z-o'zidan oilasi, sinfi va boshqa jamoalardagi o'z urnini anglay boshlaganini ko'rish mumkin. Bu davrda bolaning "Men shuni xohlayman? motividan "Men shuni bajarishim kerak" motivi ustunlik qila boshlaydi. Maktabda birinchi sinfga kelgan har bir o'quvchida psixik zo'riqish kuchayadi. Bu nafaqat uning jismoniy salomatligida, balki xatti-harakatida ham, ya'ni ma'lum darajada qo'rquvni kuchayishi, irodaviy faollikning susayishida namoyon bo'ladi.

Bu davrga kelib bola atrofidagilar bilan o'zaro munosabatda ma'lum bir natijalarga erishgan, o'zi xoxlayotgan narsalarni hamda, o'z oilasida o'zi egallagan

o'rnini aniq biladigan bo'ladi. Shuningdek, u o'zini-o'zi boshqarish malakasiga ega bo'ladi, vaziyat va holatga qarab ish yurita oladi. Bu yoshdagi bolalar xatga-harakatlari va motivlari ularning o'zlariga beradigan baholariga qarab "Men yaxshi bolaman" emas, balki bu xatti-harakatlar o'zgarar ko'z o'ngida qanday namoyon bo'lishiga qarab baholanishini tushuna boshlaydilar.

Tafakkurning rivojlanishini kichik maktab yoshidagi bola psixikasining sog'lomligida, uning bilish faolligida ko'rish mumkin. Bolaning qiziquvchanligi, asosan, atrof-olamni bilish, o'rganishga qaratilgan bo'ladi. Bola o'ynab turib, olam sir-sinoatlari, sabab-hodisalari va bog'liqlaridan xabardor bo'lishga intiladi. Masalan, bola o'zi mustaqil ravishda qanday predmetlar suvda cho'kishi, qaysilari esa suzishni tadqiq qila oladi. Bola aqliy munosabatlarda faol bo'lsa, u bugunchalik ko'p savol beradi va bu savollar, asosan, xilma-xil bo'ladi, Bolani qor, yomgir qanday yo'lishi, quyosh kechasi qayerda bo'lishi, mashina qanday qilib yurishi, yerdan osmongacha bo'lgan masafani bilishi juda qiziqtiradi. Bu yoshdagi bolalar asosan o'zlari ko'rib turgan narsa haqida chuqurroq fikr yurita oladilar. Bu yoshdagi bolalar tafakkurining asosiy turi obrazli tafakkurdir.

6-10 yoshli bola mantiqiy fikrlay oladi, lekin, bu yosh asosan ko'rganlariga tayanib, ta'lim olishga senzitiv bo'lgan davr hisoblanadi. So'zsiz bugungi jamiyatimizda bolalarning aqliy rivojlanishi yangi bilimlarni tuzilish tipiga ham bog'liq bo'lib, ular ma'lum darajada shakllangan kattalar tomonidan tuziladi. Chunki, aqliy rivojlanish ijtimoiy omillar bilan belgilanadi-individ ijtimoiy munosabatlar bilan o'zgaradi. Bolaning maktabda muntazam ravishda o'qishga o'tishi uning atrof-hayotdagi narsa-hodisalarga nisbatan fikrini va munosabatlarini o'zgarishiga olib keladi. Kichik maktab yoshidash o'quvchilarning tafakkuri mantiqiy fikrlash, muloxaza yuritish, hukm va xulosa chiqarish, taqqoslash tahlil qilishning turli usullarini qo'llashdek o'ziga xos xo'susiyatlari bilan maktabgacha yoshdagi bolalar va o'smirlardan farq qiladi. Ta'lim jarayonida tafakkur operasiyalariga, mustaqil fikrlashga o'rgatish kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni kamol toptirishning garovidir.

O'quv faoliyati psixik funksiyalarni yuqori rivojlanganlik darajasini talab etadi. Bolaning dikkati, xotira va tasavvuri mustaqil tus ola boshlaydi. Lekin, odatdagi holat va vaziyatlarda bolaga o'z psixik funksiyalarini yuqori darajada Tashqil etish hali birmuncha murakkabdir.

Ta'lim jarayoni kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ixtiyoriy, barqaror, mustahkam, kuchli, faol ongli diqqatni rivojlantirishga qulay shart-sharoit yaratadi. Bilim olish jarayonida mustaqil aqliy mexnat qilish, misol-masalalar yechish, mashqlar bajarish, takrorlash irodaviy zo'r berish jarayonida ixtiyoriy, ongli diqqat tarkib topadi.

Bu yoshdagi bolada ixtiyoriy diqqatni to'plash, Tashqil qilish, uni taqsimlash, ongli ravishda boshqarish o'quvi shakllana boshlaydi. Kichik maktab yoshidagi bola ma'lum darajada o'z faoliyatini o'zi mustaqil rivojlantira oladi. U o'z rejasini, u yoki bu ishni qanday ketma-ketlikda bajarishini so'z bilan ifodalab bera oladi. Rejalashtirish so'zsiz bolaning diqqatini Tashqil eta oladi va rivojlantiradi. Ularda ixtiyorsiz diqqat ustunlik qiladi. Kichik maktab yoshidagi bolalar so'zsiz o'z diqqatlarini aqliy masalalarga qarata oladilar, lekin bu juda katta irodaviy kuchni va yuqori motivasiyalarni tashkil etilishini talab qiladi.

Bolaning xayoli tevarak-atrof taassurotlari, tasviriy san'at asarlarini yetarli darajada aks ettirishda vujudga keladi. Siymolar, shartli belgilar, tabiat manzaralari jamlanib, o'quvchilarda xayol paydo bo'ladi.

O'quv faoliyati boladan berilgan o'quv materiallarini esda saqlab qolishni talab etadi. o'qituvchi o'quvchisiga nimalarni eslab qolishi zarurligi haqida ko'rsatmalar beradi. O'quvchi nimani eslab solishi kerakligini takrorlaydi, uni tushunib olishga harakat qiladi. Lekin bu yoshda ixtiyorsiz xotira, shubhasiz, ustunlik qiladi. Bolanning xotirasida saqlab qolishini asosan uning ishga bo'lgan qiziqishi belgilab beradi. O'quv materialini tushunish, eslab qolishning asosiy sharti hisoblanadi.

Dars jarayonida o'qituvchi turli vaziyatlarni tasavvur qilishni so'raydi. Bu holat albatta, biron-bir yordamchi qurollar-predmetlar, maketlar, sxemalar bo'lgan taqdirdagina o'quvchi tasavvo'rini rivojlantirishi mumkin. Aks holda bu yoshdagi bolalar mustaqil tasavvur harakatlar qilishga qiynaladilar.

Kichik maktab yoshidagi bolalarga axborot bosimining psixologik xususiyatlariga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiqdir. Kichik maktab yoshidagi bola o'qituvchisi bilan yaxshi emosional munosabatda bo'ladi. Shu davrgacha bevosita kattalar rahbarligida u yoki bu axborotlarni o'zlashtirib kelgan bo'lsa, endi o'z xohish irodasi bilan zarur ma'lumotlar to'plashga, o'z oldiga aniq maqsad va vazifa qo'yishga harakat qiladi. Bolaning ana shu faolligga xotirasining muayayn darajada rivojlanganligini bildiradi. Oqilona tashkil qilingan ta'lim jarayoni mazkur yoshdagi bolalarning tafakkuri jadal rivojlantiradi. Bu yoshdagi bola boshqa davrlarga nisbatan ko'proq narsani o'zlashtiradi. Maktab ta'limi o'quvchining turmush tarzini, ijtimoiy mavqeyini, sinf jamoasi va oila muhitidagi o'rnini o'zgartiradi. Uning vazifasi o'qishdan, bilim olish, ko'nikma va malakalarni egallash, o'zlashtirishdan iborat bo'lib qoladi.

Kichik maktab yoshidagi bolaning muhim xususiyatlaridan biri, unda o'ziga xos ehtiyojlarning mavjudligidir. Bu ehtiyojlar o'z mohiyatiga ko'ra muayyan bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga qaratilmay, balki faqat o'quvchilik istagini aks ettirishdan ham iboratir. Shu ehtiyojlar asosida o'z portfeliga, shaxsiy o'quv qurollariga, dars tayyorlash stoliga, kitob qo'yish javoniga ega bo'lish, kattalardek har kuni maktabga borish istagi yotadi.

Kichik maktab yoshidagi bola o'zining tub mohiyati va vazifasini tushunib yetmaydi, balki hamma maktabga borishi kerak deb tushunadi, Kattalarning ko'rsatishlariga amal qilib tirishqoqlik bilan mashg'ulotlarga kirishib ketadi. Oradan ma'lum vaqt o'tgach, shodiyona lahzalarning taassuroti kamayishi bilan maktabning tashqi belgilari o'z ahamiyatini yo'qota boradi va bola o'qishni kundalik aqliy mehnat ekanligini anglaydi. Shunda bola aqliy mehnat ko'nikmasiga ega bo'lmasa uning o'qishdan ko'ngli soviydi, unda umidsizlik hissi vujudga keladi. O'qituvchi esa bunday holning oldini olish uchun bolaga ta'limning o'yindan farqi, qiziqarliligi haqida ma'lumotlar berishi va uni shu faoliyatga tayyorlashi kerak.

O'quv faoliyatining boshlanishi jarayonida bolaning kattalar va tengdoshlari bilan qiladigan muomala-munosabatlari yangicha tus ola boshlaydi. "Bola-katta" munosabati "bola-ota-ona" munosabatidan tashqarida yuzaga keladi. Chunki, o'qituvchi bolaga ota-onaga nisbatan ko'proq ravishda normativ talablar qo'yadi. Birinchi bor maktabga kelgan bola hali o'zini to'liq anglashi va o'zi xatti-harakatlarini aniq bilishi qiyin. Faqat o'qituvchigina bolaga me'yorlar quyishi, ularning xatti-harakatlarini baholashi mumkin. O'z xatti-harakatlarini boshqalar bilan moslashtirishga sharoit yaratishi mumkin. Boshlang'ich sinfda o'quvchilar o'qituvchi tomonidan qo'yiladigan yangi shartlarni qabul qiladilar va ularning qoidalariga to'la amal qilishga harakat qiladilar. Bola uchun o'qituvchi uning psixologik holatini belgilab beruvchi asosiy figura hisoblanib, bu holat uning nafaqat sinfdagi, balki, umuman tengdoshlari bilan bo'ladigan munosabatiga, bu munosabat esa o'z-o'zidan oilasidagi munosabatlariga ham ta'sir ko'rsatadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich maktab yoshidagi o'quvchilarda bilish jarayonlarining shakllanishi ta'lim va tarbiya jarayonining asosiy bosqichlaridan biridir. To'g'ri psixologik yondashuv orqali ularning intellektual rivojlanishini samarali ta'minlash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. I.A Karimov. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. Toshkent. 2008 yil.
2. M.Voxidov. Bolalar psixologiyasi. Toshkent.1974 y.
3. V. Karimova. «Psixologiya» T.Sharq 2002 y.
4. Obidova, D., & Nasiba, J. ANALYSIS OF THE ACTIVITIES OF HEALTH CARE INSTITUTIONS: PROSPECTS FOR THE APPLICATION OF PSYCHOLOGICAL KNOWLEDGE.
5. Qodirova, M. (2022). O'SMIRLAR TARBIYASINING QIYINCHILIK XUSUSIYATLARI VA ULARNING KELIB CHIQISH SABABLARI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 2(5). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5105>